



UDK 152.22

Zoir YUNUSXODJAYEV,  
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi katta o'qituvchisi  
E-mail: zoiryunusxodjayev@gmail.com

Psixologiya fanlari doktori S.Jo'rayeva taqrizi asosida

## OBJECTIVE AND SUBJECTIVE CONTEXT OF THE DYNAMICS OF THE DISTRIBUTION OF ROLES IN A COUPLE RELATIONSHIP

Annotation

Creating a family is a serious and important step in the life of every person. It is important for society and the state that this issue leaves the personal and private sphere and acquires social significance, conveys information about gender roles and their responsibilities in marriage to young people who are on the verge of starting a family, and forms the responsibility of motherhood in the minds of growing children, especially ours daughters, and the responsibility of fatherhood in the minds of our sons.

**Key words:** Family, patriarchal family, matriarchal family, equality and democratic family, role in the family, marriage.

## ОБЪЕКТИВНЫЙ И СУБЪЕКТИВНЫЙ КОНТЕКСТ ДИНАМИКИ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ РОЛЕЙ В СУПРУЖЕСКИХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация

Создание семьи – серьезный и ответственный шаг в жизни каждого человека. Обществу и государству важно, чтобы этот вопрос вышел из личной и частной сферы и приобрел социальную значимость, донес до молодых людей, стоящих на пороге создания семьи, информацию о гендерных ролях и их обязанностях в браке, сформировать ответственность материнства в сознании растущих детей, особенно наших дочерей, и ответственность отцовства в сознании наших сыновей.

**Ключевые слова:** Семья, патриархальная семья, матриархальная семья, равноправная и демократическая семья, роль в семье, брак.

## ER-XOTIN MUNOSABATIDA ROLLAR TAQSIMOTI DINAMIKASINING OBYEKTIV VA SUBYEKTIV KONTEKSTI

Annotatsiya

Oila qurish masalasi har bir inson hayotida jiddiy, mas'uliyatli qadam. Bu masala shaxsiy, xususiy doiradan chiqib, ijtimoiy ahamiyat kasb etishini, nikohdagi gender rollar va ularning vazifalari haqida ma'lumotlarni oila qurish ostonasida turgan yoshlarga yetkazish, voyaga yetayotgan bolalar, avvalambor qizlarimiz ongida onalik mas'uliyati, o'g'illarimizda esa ota bo'lish mas'uliyatini shakllantirish jamiyat va davlat oldidagi muhim vazifa bo'lib qoladi.

**Kalit so'zlar:** Oila, patriarxal oila, matriarxal oila, tenglik va demokratik oila, oiladagi rol, nikoh.

**Kirish.** Oiladagi rol munosabatlarning o'zgarishi oila va nikoh munosabatlarini zamonaviy qayta qurishning eng muhim bosqichidir. Hozirgi vaqtda nikoh va oilaviy munosabatlarni, shu jumladan rol munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning noaniqligi zamonaviy oila uchun bir qator ijtimoiy-psixologik va pedagogik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ulardan eng muhimi tashqi rolli o'zaro ta'sirning har bir tomonini tanlash va erkakning oiladagi rol xatti-harakatlarining turli jihatlariga munosabatini shakllan-tirishdir.

Rol tuzilmasining paydo bo'lish jarayoni uning oilada ijtimoiy-psixologik jamoa sifatida shakllanishi, turmush o'rtoqlarning bir-biriga moslashishi va oilaviy hayot tarzi rivojlanishining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Rol xulq-atvorining turli me'yorlari va shakllari mavjudligini hisobga olgan holda bu jarayon turmush o'rtoqlarning shaxslararo munosabatlari bilan chambarchas bog'liq.

Oilada muayyan rolni tanlash va qabul qilish muammosi oila a'zolarining ushbu obrazga, ularning oiladagi roliga va boshqa oila a'zolarining rollarini bajarishga munosabatini shakllantirish bilan ajralmasdir. Zamonaviy oilada otaning bolalarni tarbiyalashda onaning sherigi sifatidagi ulushi ularga nisbatan g'amxo'rlikning ortib borayotganida ko'rinadi. Oilada onaning roli ham o'zgarimoqda bolalar bilan

muloqotda ayol xulq-atvorining "emansipator erkaklashuvi" sodir bo'layapti, buning natijasida ayollar odatda eri va bolalari ustidan hukmronlik qilishga intiladi.

Oilada rolli xulq-atvor va rol munosabatlari qoidalari oilaviy hayot jarayonida, shaxslararo munosabatlar va oila a'zolari o'rtasidagi muloqot bilan chambarchas bog'liq holda ta'minlanadi. Zamonaviy me'yorlar oilada butun jamiyat uchun funksional rol guruhlarini qurishning bir xil bo'lmagan, turli oilalar uchun ajratilgan, har bir oila a'zosining vazifalarini oldindan belgilangan namunalar bo'yicha qat'iy bo'lgan taqsimlashni rad etgan holda moslashuvchan cheklovlarni nazarda tutadigan usullarni taklif etadi. Oiladagi rol va oilaviy munosabatlar oilaviy tajribaga asoslanadi, masalan, shaxsiy moyillik va qobiliyatlar, tajriba, xohish, ixtiyoriy rozilik, ishlab chiqarish sohasidagi bandlik darajasi va boshqalar.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tadqiqotda T.Lirining «Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi» metodikasi, V.V.Stolin va S.R.Pantileevning «O'z-o'ziga bo'lgan munosabat» test-so'rovnomasi, S.Yu.Kupryanovanning «Oilaviy muhit shkalasi» metodikasi, Yu.Ye.Aleshina, L.Ya.Gozman, Ye.M.Dubovskayaning «Oilada rollar taqsimoti» metodikasi hamda V.V.Stolin, T.M.Ramanov, G.G.Butenkoning «Oilaviy hayotdan qoniqish»

so'rovnomasidan foydalanilgan. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Kolmogorov-Smirnov Z mezon, Mann-Uitni mezoni, Kraskel-Uollis – H mezon hamda Spirmening r-korrelyatsiya koefitsienti orqali tasdiqlandi.

Fanda ijtimoiy rol xususiyatlari va yetakchilik mezonlari asosida oilalar quyidagicha tasniflanadi: patriarxal, matriarxal, tenglik va demokratik oila.

Patriarxal oila. Bunday oilada er uning so'zsiz boshliq, xotinning eriga, bolalarning ota-onasiga qaramligi aniq ifodalangan. Erkak kishiga "xo'jayin", "ta'minotchi", "boquvchi" rollari beriladi. Erkak hokimiyati shubhasiz tan olinadi yoki bosim ostida qabul qilinadi. Boshqa oila a'zolarining hokimiyati ularning jinsi va yoshiga bog'liq: keksa odamlar eng hurmatga sazovor, erkaklar ayollarga qaraganda ko'proq huquqlarga ega. Guruh manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun turadi. Shuning uchun bu turdagi oila avtoritar-patriarxal deb ataladi.

Matriarxal oila. Ushbu turdagi oilada shaxsiy ustunlik ayolga tegishli. Ba'zi oilalarda, erkakning rasmiy rahbarligi bilan, aslida hukmron mavqeni ayol egallaydi. U uy bekasi yoki juda kam maosh oladi. Oddiy hayot va iste'molni tashkil etish uning yelkasiga tushadi va u uy xo'jaligini namunali olib borishi, uyda qulay va sokin muhit yaratishi talab etiladi. Uning vazifalariga bolalarga qarash va tarbiya ham kiradi. Har doim ona oilaviy rishtalarni saqlashda alohida rol o'ynagan. Ayolning shaxslararo munosabatlarni tartibga solish va boshqalarga ta'sir qilishning bilvosita usullarini qo'llash qobiliyati unga yetakchilik uchun kurashda g'alaba qozonishga yordam beradi.

Egalitar (fransuzcha egalitaire — tenglik) oila. Bu amorf, shakllanmagan rol tuzilishiga ega, yetakchiliksiz va rollar mas'uliyatlarining aniq taqsimlangan oilasi. U teng, ekvivalent deb ham ataladi. Zamonaviy yadro oilasi aynan shunday bo'lib bormoqda, uni teng huquqli ittifoq deb hisoblash mumkin, ya'ni uning barcha voyaga yetgan a'zolari huquq va majburiyatlarida teng ulushga, bolalar uchun yetarlicha mustaqil pozitsiyaga ega. Biroq, oila shakllarining xilma-xilligi va sheriklarning oilaviy baxtning tarkibiy qismlari to'g'risidagi qarashlari, nikoh va oilaviy g'oyalardagi sezilarli tafovut tufayli tenglik ittifoqini yaratish hozirgi kunda tobora qiyinlashib borayotgan masaladir.

Demokratik oila oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmatga, oilaviy rollarni muayyan vaziyat ehtiyojlariga muvofiq taqsimlashga, er-xotinning shaxsiy fazilatlarini va qobiliyatlariga, ularning har birining barcha masalalarda teng ishtirok etishiga, barcha muhim qarorlarni birgalikda qabul qilishiga asoslanadi. Demokratik oilada, qoida tariqasida, "rasmiy" boshliq yo'q, lekin rahbar, obro'li shaxs mavjud. Bundan tashqari, er ba'zi munosabatlarda, xotin esa boshqalarida yetakchi bo'lishi mumkin. Ba'zi hayotiy vaziyatlarda ulg'ayib borayotgan bolalar ham yetakchiga aylanishi mumkin.

Nikoh rollarini uchta asosiy turga ajratish mumkin: an'anaviy, do'stona o'rtoqlik va hamkorlik rollari. Asosiy rolga

moslashish, albatta, oilaviy majburiyatlarining tabiati va taqsimoti haqidagi g'oyalarni muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi. Moslashuvning birinchi xususiyati bu turmush o'rtoqlar bir xil turdagi rolni tanlashi. Ikkinchisi, bu rol uchun zarur bo'lgan oila ichidagi va oiladan tashqari xatti-harakatlarning asosiy tarkibiy qismlarining har biri er va xotinga mos kelishidir.

An'anaviy rollar xotinning farzand ko'rishi va uni tarbiyasi bilan shug'ullanish, vafodorlikni saqlash, oilaga xizmat qilish, o'z manfaatlarini erining manfaatlariga sodiqlik bilan bo'ysundirish, turmush o'rtog'iga va uning oila a'zolariga bo'ysunishga moslashish va faoliyat doirasining cheklanganligiga toqat qilishni o'z ichiga oladi. Bu holatda oilaviy munosabatlarning uyg'unligini saqlab qolish uchun er tomonidan quyidagilar zarur: farzandlarining onasiga sadoqat, oilaning iqtisodiy xavfsizligi va himoyasi, oilaviy hokimiyat va nazoratni saqlab turish, oilada asosiy qarorlarni qabul qilish, ajralishda alimentni ta'minlash.

Erning roli o'z xotiniga his-tuyg'ularini baxshida etishni va unga nisbatan jasoratli munosabatni, o'zaro mehr – muhabbat va muloyimlikni, kiyim-kechak sotib olish, o'yin-kulgi, ijtimoiy aloqalarni saqlash, xotini bilan bo'sh vaqtini o'tkazish uchun mablag' bilan ta'minlashni talab qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yosh oilalarda barqarorlikni ta'minlovchi omillar turlicha. Yosh turmush o'rtoqlar oilada xotin o'zini qay darajada kasbiy faoliyatga bag'ishlashi, oilaviy mas'uliyatni qay darajada ado etishi haqida kelishib olishi, bo'sh vaqtni sarflashda turmush o'rtoqlarning fikrlari izchilligi, erkakning oiladan tashqari va xuddi shuningdek, ayolning ham oiladan tashqari masalan, dugonalari bilan dam olish vaziyatlarini kelishib olishlari, oilada bolalar tarbiyasi va iqtisodiy ta'minoti majburiyatlarini teng taqsimlanishi, shaxslararo rollarning izchilligi, nikohda va oilada bir birlarining pozitsiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, shular jumlasidandir. Afsuski, psixologik maslahat amaliyotidagi kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yoshlar an'anaviy va egalitar oila xususiyatlarini aralashtirib yuboradilar.

**Tahlil va natijalar.** Oiladagi er-xotin munosabatlari dinamikasi hamda nikohdan qoniqish darajasining oila stajiga ko'ra tavsiflarini o'rganishga qaratilgan tadqiqot davomida T.Lirining "Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi" metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodika o'zida 8 ta shkalani ifodalab olingan ballarning yig'ilgan summaning tafovutiga ko'ra shaxsda boshqalar bilan munosabatlarda hamda guruh ichida yuqoridagi 8 ta tipning barchasi turli ko'rinishda yuzaga chiqishi mumkinligini anglatadi. Natijalar tahlilini amalga oshirar ekanmiz, juftliklarda doim o'zaro munosabat paytida hamda oilaning turli muammolarini hal qilish barobarida liderlikka intilish mavjudligi (9,73) ma'lum bo'ladi. O'zaro munosabatlarda ishonchsizlik ko'rsatkichi esa (5,80) kamroqni tashkil etib, er-xotinlar kamdan-kam vaziyatlarda bir-biriga nisbatan ishonchsizlik tug'diradigan vaziyatlarni hosil qilishga moyillik bildiradi, degan xulosalarni qilishga imkon beradi.

Juftliklarning oilaviy hayotdan qoniqish hamda o'z-o'ziga munosabat ko'rsatkichi asosidagi tavsiflovchi statistik ko'rinishi (N=600)

| Shkalalar                          | Min  | Max   | M       | Std. Og'ish | Z     | p       |
|------------------------------------|------|-------|---------|-------------|-------|---------|
| Oilaviy hayotdan qoniqish darajasi | 6,00 | 47,00 | 31,1933 | 7,55211     | 2,313 | 0,000** |
| Ichki samimiylilik                 | 1,00 | 11,00 | 6,5167  | 2,31560     | 2,836 | 0,000** |
| O'z-o'ziga ishonch                 | 1,00 | 15,00 | 6,6617  | 2,51948     | 2,711 | 0,000** |
| O'z-o'zini boshqarish              | 1,00 | 12,00 | 7,0083  | 2,47895     | 2,909 | 0,000** |
| O'ziga bo'lgan munosabat           | 1,00 | 11,00 | 7,0800  | 2,20871     | 3,262 | 0,000** |
| O'zini baholash                    | 1,00 | 16,00 | 7,2483  | 2,90069     | 2,195 | 0,000** |
| O'zini qabul qilish                | 1,00 | 11,00 | 6,3333  | 2,18789     | 2,741 | 0,000** |
| O'ziga bog'langanlik               | 1,00 | 11,00 | 5,9617  | 2,32290     | 2,798 | 0,000** |
| Ichki nizolilik                    | 1,00 | 14,00 | 7,0317  | 2,99816     | 2,474 | 0,000** |
| O'zini ayblash                     | 1,00 | 10,00 | 5,9617  | 2,27497     | 3,167 | 0,000** |

\*\* - p < 0,01

M.Ueddell o'zining «Oila va uning dinamikasi» asarida oila - qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan odamlar guruhi, turli xil er-xotinlar atrofida mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy birlik ekanligini ta'kidlaydi. Oilada tizimli aloqalar asosini tashkil etuvchi dinamik jarayonlar – “oila dinamikasi”da sodir bo'ladi. Bolaning tug'ilishi kelajakda oilani karakterlaydigan uzoq muddatli va o'ziga xos munosabatlar modellarini o'rnatadigan dinamikaning boshlanishini anglatadi. Bolaning tug'ilishi bilan, ilgari o'z-o'zidan yopilgan tizim uchburchak shaklida obyektiv ravishda mavjud bo'la boshlaydi, uchburchak uchun xarakterli va tegishli barcha muammolar mavjud. Bola bilan sodir bo'ladigan jarayonlarning mohiyati oiladagi onalik, otalik, ota-onalik kabi tushunchalarning mazmunini belgilaydi. Olimlar barcha oilaviy jarayonlar oilaviy hayotning birinchi kunlaridan kelib chiqqan ota-ona oilalarida o'tmish dinamikasining tabiiy davomi sifatida sodir bo'lishiga e'tibor qaratishadi. Shunday qilib, oila dinamikasi - bu butun oilada ham, uning alohida a'zolarida ham turli xil o'zgarishlarga olib keladigan muhim shakl. Oilaning harakatlanishi muqarrar, bu oilaviy inqiroz holatlarida tezroq sodir bo'ladi. Er-xotin munosabatlaridagi dinamik holatni o'rganganda albatta ularning oilaviy hayotdan qoniqish darajasiga e'tibor berish lozim. Boisi, oilaviy hayotdan qoniqish shaxsning juft sifatida tanlagan hamda umr yo'lini bog'lagan insonidan ma'naviy, jinsiy, moddiy, ruhiy qoniqish

hosil qilishini ham qamrab oladi. Yuqorida berilgan jadvaldan ko'rinadiki, juftliklarda oilaviy hayotdan qoniqish darajasi o'rtacha. Bunda ular bir-birini to'ldiradi, turli vaziyatlarda o'xshash qoniqishlarni his qiladi. V.V.Stolin va S.R.Pantileevning “O'z-o'ziga bo'lgan munosabat” test-so'rovnomasining tahlili bo'yicha ichki samimiylik shkalasi bo'yicha ( $Z=2,836$ ;  $p<0,01$ ), o'z-o'ziga ishonch shkalasi bo'yicha ( $Z=2,711$ ;  $p<0,01$ ), o'zini-o'zi boshqarish shkalasi bo'yicha ( $Z=2,909$ ;  $p<0,01$ ), o'ziga bo'lgan munosabat shkalasi bo'yicha ( $Z=3,262$ ;  $p<0,01$ ), o'zini baholash shkalasi bo'yicha ( $Z=2,195$ ;  $p<0,01$ ), o'zini qabul qilish shkalasi bo'yicha ( $Z=2,741$ ;  $p<0,01$ ), o'ziga bog'langanlik shkalasi bo'yicha ( $Z=2,798$ ;  $p<0,01$ ), ichki nizolilik shkalasi ( $Z=2,474$ ;  $p<0,01$ ) va o'zini ayblash ( $Z=3,167$ ;  $p<0,01$ ) ko'rinish oldi.

Mazkur olingan natijalar ham normal taqsimlanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi. Natijalardan ma'lum bo'ladiki, juftliklarda turli hayotiy vaziya hamda bir oila davridan ikkinchi oila yiliga o'tishda ba'zi vaziyatlar ta'sirida o'zini ayblash, o'ziga munosabat kabi ko'rsatkichlarda dinamik holatlar kuzatilib turar ekan. Biz ushbu jihatni ko'proq, shaxsning ehtiyojlar hamda motivatsion sohasidagi o'zgarishlarning tub qadriyatlar bilan to'qnashuvi va o'zini o'zini aktuallashtirgan holda realizatsiya qilish paytdagi intim kechinmalari bilan bog'lashimiz mumkin.

Juftliklarning oilaviy muhit shkalasi ko'rsatkichi asosidagi tavsiflovchi statistik ko'rinishi (N=600)

| Shkalalar                         | Min  | Max  | M      | Std. Og'ish | Z     | p       |
|-----------------------------------|------|------|--------|-------------|-------|---------|
| Uyg'unlik                         | 3,00 | 9,00 | 4,8283 | 1,41026     | 3,752 | 0,000** |
| Ekspressivlik                     | 3,00 | 9,00 | 4,8200 | 1,44259     | 3,751 | 0,000** |
| Nizo                              | 3,00 | 8,00 | 5,0933 | 1,54335     | 3,549 | 0,000** |
| Mustaqillik                       | 3,00 | 9,00 | 5,2183 | 1,54639     | 3,390 | 0,000** |
| Muvaffaqiyat orientatsiyasi       | 3,00 | 8,00 | 4,8000 | 1,43647     | 3,908 | 0,000** |
| Intellektual-madaniy orientatsiya | 3,00 | 9,00 | 5,1283 | 1,54354     | 3,412 | 0,000** |
| Faol dam olishga orientatsiya     | 3,00 | 9,00 | 4,8467 | 1,47199     | 3,760 | 0,000** |
| Axloq va tarbiya                  | 3,00 | 9,00 | 5,3567 | 1,52862     | 3,545 | 0,000** |
| Tashkilotchilik                   | 3,00 | 8,00 | 5,0017 | 1,48053     | 3,714 | 0,000** |
| Nazorat                           | 3,00 | 9,00 | 5,3367 | 1,53859     | 3,310 | 0,000** |

\*\*\_  $p<0,01$

Juftliklarning oilaviy muhit shkalasi tahlili bo'yicha uyg'unlik shkalasi bo'yicha ( $Z=3,752$ ;  $p<0,01$ ), ekspressivlik shkalasi bo'yicha ( $Z=3,751$ ;  $p<0,01$ ), nizo shkalasi bo'yicha ( $Z=3,549$ ;  $p<0,01$ ), mustaqillik shkalasi bo'yicha ( $Z=3,390$ ;  $p<0,01$ ), muvaffaqiyat orientatsiyasi shkalasi bo'yicha ( $Z=3,908$ ;  $p<0,01$ ), intellektual-madaniy orientatsiya shkalasi bo'yicha ( $Z=3,412$ ;  $p<0,01$ ), faol dam olishga orientatsiya shkalasi bo'yicha ( $Z=3,760$ ;  $p<0,01$ ), axloq va tarbiya shkalasi ( $Z=3,545$ ;  $p<0,01$ ), tashkilotchilik ( $Z=3,714$ ;  $p<0,01$ ) va nazorat shkalasida ( $Z=3,310$ ;  $p<0,01$ ) ko'rinish oldi. Mazkur olingan natijalar ham normal taqsimlanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi.

Juftliklarning oilaviy muhit shkalasi ko'rsatkichlari tahliliga binoan, nazorat ko'rsatkichida (5,33) ustunlik kuzatilib mental muhitimizga asoslanib oilada bir-birining xulq-atvorini nazorat qilish ustuvor ekan ma'lum bo'ladi. Muvaffaqiyat orientatsiyasida esa biroz past natijalar qayd etildi (4,80), Yu.Ye.Aleshina, L.Ya.Gozman, Ye.M.Dubovskayaning “Oilada rollar taqsimoti” metodikasining tavsiflovchi statistik ko'rinishi

(N=600)

| Shkalalar                              | Min  | Max  | M    | Std. Og'ish | Z     | p     |
|--|------|------|------|-------------|-------|-------|
| Bola tarbiyasi                         | 1,00 | 4,00 | 3,52 | 0,88269     | 3,136 | 0,000 |
| Oiladagi emotsional muhit              | 1,00 | 4,00 | 3,68 | 0,87304     | 2,380 | 0,000 |
| Oilaning moddiy ta'minlanishi          | 1,00 | 4,00 | 3,70 | 0,82943     | 2,563 | 0,000 |
| Ko'ngil ochishlarni tashkil qilish     | 1,00 | 4,00 | 2,57 | 0,91639     | 2,599 | 0,000 |
| Uy sohibi va sohibasi                  | 1,00 | 4,00 | 2,71 | 0,86989     | 2,071 | 0,000 |
| Jinsiy sheriklik                       | 1,00 | 4,00 | 3,12 | 0,82510     | 2,532 | 0,000 |
| Oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish | 1,00 | 4,00 | 2,74 | 0,80687     | 2,734 | 0,000 |

\*\*\_  $p<0,01$

Juftliklarning oilada rollar taqsimoti metodikasining tahlili bo'yicha bola tarbiyasi shkalasi bo'yicha ( $Z=3,136$ ;  $p<0,01$ ), oiladagi emotsional muhit shkalasi bo'yicha ( $Z=2,380$ ;  $p<0,01$ ), oilaning moddiy ta'minlanishi shkalasi bo'yicha ( $Z=2,563$ ;  $p<0,01$ ), ko'ngil ochishlarni tashkil qilish

shkalasi bo'yicha ( $Z=2,599$ ;  $p<0,01$ ), uy sohibi va sohibasi shkalasi bo'yicha ( $Z=2,071$ ;  $p<0,01$ ), jinsiy sheriklik shkalasi bo'yicha ( $Z=2,532$ ;  $p<0,01$ ), faol dam olishga orientatsiya shkalasi bo'yicha ( $D=3,760$ ;  $p<0,01$ ), oiladagi ichki madaniyatni uyushtirish shkalasi ( $D=2,734$ ;  $p<0,01$ ) ko'rinish

oldi. Mazkur olingan natijalar ham normal taqsimlanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi.

Oilada rollar taqsimoti metodikasining ko'rsatkichlari tahliliga binoan, oiladagi emotsional muhit bo'yicha (3,68) o'rtacha qiymat baland ko'rinish olgan bo'lib, bu bizga juftliklar turmush dinamikasida oiladagi emotsional muhit oila barqarorligini rollar teng taqsimlanishi belgilab beradigan asosiy indikativ belgi bo'lishi mumkinligidan darak beradi. Shuningdek, oilaning moddiy ta'minlanishi bo'yicha ham (3,70) erkak va ayol o'rtasida rollar to'g'ri taqsimlanishi oiladagi "gegemonlik" nuqtayi nazaridan hokimiyatni o'z qo'lga olishda erkakka katta ustunlik beradi. Natijada, oilada iqtisodiy funktsiya to'g'ri ishlaydi, yetishmovchilik hissi sezilmaydi hamda oilada barqaror iqtisodiy muhit hukm surishiga asos bo'ladi.

Ko'ngil ochishlarni tashkil etish jihatidan nisbatan o'rtacha qiymat ko'rsatkichining qayd etilganini (2,57) biz turmush yillari davomida etnik xususiyatlarimizdan kelib chiqib turmush o'rtoqlarning o'zini emas, balki farzandining yorqin istiqbolini o'ylagani evaziga ba'zi holatlarda madaniy

dam olish, ko'ngilochar maskanlarga nisbatan kam tashrif buyurish, faol xordiqqa e'tiborni kam qaratish holatlari tez-tez kuzatilishi bilan ham tushuntirishimiz mumkin. Ushbu jihatdan oiladagi rollar taqsimlanishida tenglik qayd etilib, bu ba'zan er, ba'zan ayol tomonidan ushbu rolni o'z bo'yniga olish ehtimoli balandligini ko'rsatadi.

Oila psixologik farovonlik manbai sifatida shaxsning shaxslararo va rolga asoslangan oilaviy munosabatlar haqidagi g'oyalarini shakllantirishga ta'sir qiladi. Oilaviy hayot dinamikasi o'sgan sari shaxsda oila borasidagi g'oyalar, juftini tushunish instinktiv shaklda kechadi deyish mumkin. Er-xotinning turmushdagi rollar dinamikasiga ta'sir etadigan ijtimoiy-psixologik omillarni o'rganish orqali turli turmush yillaridagi rollar taqsimoti qay shaklda kechishini taxmin qilish mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa shuki, oila jamiyatning bir bo'g'ini ekanligi sababli, oilalarni har tomonlama o'rganish, ulardagi turli xildagi muammolarni hal qilish, yechim qidirish, to'g'ri rejali ish yuritish, muammoli oilalarni bu muhitdan olib chiqish va jamiyatga qo'shib yuborish chora-tadbirlarini o'ylab chiqish lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Karimova V. Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Abdusamatov X. "Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari". Psixol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2019.
3. Abdusamatov X. Migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlari. Psixol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022.
4. Niyazmetova G. O'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlari dinamikasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2010.
5. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil